1. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi (2021-yil 22-fevral, O‘RQ-676-son), 12-modda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-5307951

2. AQA A-Level Geography: Contemporary Urban Environments. – London: Hodder Education, 2021.

3. Statistics Bureau of Japan, Ministry of Internal Affairs and Communications. 2023 Housing and Land Survey: Summary of Results. – Tokyo, 2024.

4. UN-Habitat. World Cities Report 2024: Cities and Climate Action. – Nairobi: UN-Habitat, 2024.

5. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. World Population Prospects 2024: Summary of Results. – New York: United Nations, 2024.

6. World Health Organization, Regional Office for Europe. Urban Green Spaces and Health: A Review of Evidence. – Copenhagen: WHO Regional Office for Europe, 2016.

7. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Ташкент: Университет, 2002. – 127 с.

8. Лаппо Г.М. География городов. – М.: ВЛАДОС, 1997. – 480 с.

9. Мечников Л.И. Цивилизация и великие исторические реки. – М.: Прогресс–Пангея, 1995. – 464 с.

10. Нефедова Т.Г. Большой, малый, средний город и село в России // География, градостроительство, архитектура: синтез наук и практик. – Смоленск: Ойкумена, 2013. – С. 171–190.

Internet materiallari

11. Council on Tall Buildings and Urban Habitat. The Skyscraper Center: Global Tall Building Database. – Chicago: CTBUH, 2026. URL: https://www.skyscrapercenter.com

12. Henley & Partners. The World’s Wealthiest Cities Report 2025 / in partnership with New World Wealth. – London: Henley & Partners, 2025. URL: https://www.henleyglobal.com/publications/wealthiest-cities-2025

13. IMD Smart City Observatory. Smart City Index 2025. – Lausanne: IMD World Competitiveness Center, 2025. URL: https://www.imd.org/smart-city-observatory/

14. U.S. Census Bureau. American Community Survey, 5-Year Estimates: Place of Birth by Nativity and Citizenship Status (New York city, NY; Miami city, FL). – Washington, 2023. URL: https://data.census.gov

15. Urbanization in Central Asia: Challenges, Issues and Prospects. Analytical Report 2013/03. – Tashkent: UNDP, 2013. URL: https://www.unescap.org/sites/default/files/Urbanization-in-CA-ENG.pdf

16. Cox W. Demographia World Urban Areas. 20th Edition. Chapman University, Center for Demographics and Policy, 2025. URL: https://blogs.chapman.edu/wp-content/uploads/sites/56/2025/06/Demographia-World-Urban-2025.pdf

17. Howard, E. (1902). *Garden Cities of To-morrow* (2nd ed. of *To-morrow: A Peaceful Path to Real Reform*, 1898). London: Swan Sonnenschein & Co.

QO‘QON SHAHRI AHOLISINING TABIIY HARAKATI VA DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR DINAMIKASI

Abduvaliyev X.A

Farg‘ona davlat universiteti, geografiya kafedrasi mudiri DSc., dots.

Urinboyeva D.Z, Baxodirova X.D

Farg‘ona davlat universiteti, geografiya kafedrasi magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri aholisining tabiiy harakati va demografik o‘zgarishlar 2010-2025-yillar dinamikasi ilmiy-statistik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida aholining tug‘ilish, o‘lim va tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlari, shuningdek, aholi soni va tarkibidagi o‘zgarishlar yillar kesimida o‘rganildi. Rasmiy statistika ma’lumotlari asosida shaharda demografik jarayonlarning xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liqligi ochib berildi. Olingan natijalar Qo‘qon shahrida aholining tabiiy o‘sishi ijobiy tendensiyaga ega ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari hududiy demografik siyosatni takomillashtirish va aholi resurslaridan samarali foydalanishda amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi.*

Kalit so‘zlar*: Demografik jarayonlar, tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajrim, tabiiy o‘sish, migratsiya, aholi tarkibi, demografik tahlil, aholi dinamikasi.*

Kirish. Aholining demografik holati va uning o‘zgarish jarayonlarini o‘rganish har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Aholining tabiiy harakati tug‘ilish, o‘lim va tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlari jamiyatning demografik salohiyati, mehnat resurslari shakllanishi hamda hududiy rivojlanish istiqbollarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois demografik jarayonlarni hududlar kesimida tahlil qilish zamonaviy demografiya va ijtimoiy geografiya fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Qo‘qon shahri mehnat resurslariga boyligi hamda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Shahar hududining katta qismi aholi zichligiga ega bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda aholining soni va tarkibida muayyan demografik o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar asosan tabiiy harakat ko‘rsatkichlari, migratsiya jarayonlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Qo‘qon shahri aholisining tabiiy harakati va demografik o‘zgarishlar dinamikasini ilmiy-statistik jihatdan tahlil qilish, demografik jarayonlarning hududiy xususiyatlarini aniqlash hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ushbu maqolani yoritib berishda rasmiy demografik va ijtimoiy-iqtisodiy statistik ma’lumotlaridan foydalanilgan. Tahlillarni amalga oshirishda geografik taqqoslash, monografik tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda shaharning ishlab chiqarish resurslari va qayta ishlash sanoatining rivoji, transport logistika infratuzilmasining hududiy o‘rni asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaralgan Shu bilan birga, aholi geografiyasiga oid adabiyotlarda demografik o‘sish va ichki migratsiya masalalari tahlil qilingan.

Mavjud adabiyotlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, Qo‘qon shahrining ayrim hududiy va demografik jarayonlari bo‘yicha ilmiy qarashlar mavjud bo‘lsa-da, ularni kompleks va zamonaviy statistik ma’lumotlar asosida baholashga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Xususan, Q.X.Abdurahmonov [1], Berdiyeva S [2], M.Q.Qoraxonov [8], I.R.Mullajonov [9], A.S.Soliyev [6], A.A.Qayumov [4], R.G.Asanov [5], M.Bo‘riyeva [3], Z.N.Tojiyeva [7] kabi olimlarning tadqiqotlarida markaziy o‘rin olgan. Jumladan, aholi soni, tug‘ilishi, o‘limi, nikoh va ajralish, tabiiy o‘sish dinamikasi jarayonlari hamda joylashuvi kabi demografik jarayonlarni va bu jarayonlarga ta’sir etuvchi omillar chuqur tahlil etilgan. Masalan:

-aholining tabiiy harakati ko‘rsatkichlari tug‘ilish, o‘lim va tabiiy o‘sish darajasini ilmiy asosda o‘rganish;

-shahar aholisi tarkibidagi (yosh va hududiy tuzilma) demografik o‘zgarishlarni aniqlash; - demografik jarayonlarga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillarni baholash;

-aholi tabiiy o‘sishining hududiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlil qilish;

-tadqiqot natijalari asosida hududiy demografik siyosatni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish**;**

-aholi bandlig darajasini o‘rganish **;**

Natijalar va ularning muhokamasi. Aholi soni 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, 314 484 kishini, zichligi esa 7,3 ming kishini tashkil etadi va respublikada zichligi bo‘yicha

oldingi o‘rinlarda turadi. Aholi tarkibida asosan o‘zbeklar, shuningdek, tojiklar, ruslar va boshqa millat vakillari istiqomat qiladi.



Izoh: Ushbu jadval Farg‘ona viloyati statistika qo‘mitasi rasmiy sayti: farstat.uz ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi

Keyingi yillarda shaharda nikohlar soni ko‘payib ajralishlar soni kamaymoqda. Bu esa aholi orasida oila munosabatlariga to‘g‘ri yondashuvning amalga oshirilayotgani, yoshlar o‘rtasida oilaga bo‘lgan munosabatlar yaxshilanayotganini ko‘rsatadi.

Shaharda 2010-2025 yillar oralig‘ida tug’ilish har ming kishiga 4824 kishidan 2025 yil 6923 kishiga yetgan. Mutanosib ravishda o’lim 2010 yil 1414 kishidan 2025 yil 1513 kishiga yetgan. Dastlabki yilda tabiiy ko‘payish 3410 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib 4592 kishiga oshgan. Bu statistik raqamlardan ko‘rishimiz mumkinki,yillar mobaynida shahar aholisining tabiiy ko‘payishi har ming kishiga 2000 kishini tashkil etgan.(1-jadvalga qarang).

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shaharda tabiiy ko‘payish optimal darajada.Lekin aholining tug‘ulish darajasini me’yorda saqlash lozim. Bunday jarayon demografik yukni oldini oladi.

1-jadval

Qo‘qon shahrida 2010-2025-yillardagi demografik jarayonlar

T/R	Yillar	Tug‘ulish (ming kishi)	O‘lim (ming kishi)	Tabiiy o‘sish (ming kishi)	Ko‘chib ketganlar kishi	Ko‘chib kelganlar kishi	Migratsiya saldosi kishi
1.	2010	4824	1414	3410	1663	1368	-295
2.	2011	4276	1399	2877	1404	1458	54
3.	2012	4441	1547	2894	1706	1489	-217
4.	2013	4537	1386	3151	1564	1435	-129

5.	2014	4883	1498	3385	1734	1696	-38
6.	2015	4904	1418	3486	1641	1178	-463
7.	2016	4853	1288	3565	1715	1333	-382
8.	2017	4388	1408	2980	1677	1162	-515
9.	2018	4914	1299	3615	1378	994	-384
10.	2019	5380	1291	4089	1318	1219	-99
11.	2020	5848	1493	4355	1494	837	-657
12.	2021	5783	1565	4218	1462	515	-947
13.	2022	6561	1249	5312	1339	341	-998
14.	2023	7976	1499	6477	1198	249	-949
15.	2024	7654	1490	6194	1739	1928	189
16.	2025	6923	1513	5410	1966	2570	604

Izoh: Ushbu jadval Farg‘ona viloyati statistika qo‘mitasi rasmiy sayti: farstat.uz ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi

Tug‘ilish darajasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim yillarda (xususan, 2019– 2024 yillar oralig‘ida) tug‘ilishlar soni 5-7 ming kishidan oshganligi, demografik faollikning kuchayganini ifodalaydi. Ayniqsa, 2022–2024 yillarda tug‘ilish ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishi natijasida tabiiy o‘sish eng yuqori darajaga yetgan. Masalan, 2023–2024 yillarda tabiiy o‘sish 7 ming kishidan oshib, butun davr bo‘yicha eng yuqori natijalarni qayd etgan.

O‘lim ko‘rsatkichlari esa, umuman olganda, nisbatan barqaror bo‘lib, ayrim yillarda 2012-2018-yilgacha yuqori bo‘lgan. Keyingi yillarda barqarorlashib yana 2020-yida keskin oshgani kuzatiladi. Bu holat global epidemiologik vaziyat va sog‘liqni saqlash tizimiga tushgan yuklama bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, o‘lim darajasining tug‘ilishdan ancha past bo‘lishi tabiiy o‘sishning ijobiy saqlanib qolishiga imkon bergan.

Migratsiya jarayonlari tahlili hudud uchun salbiy migratsiya saldosi xos ekanligini ko‘rsatadi.Ammo ba’zi yillarda(2011,2024,2025)migratsiya saldosi musbat bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Ayrim yillarda ko‘chib ketganlar soni ko‘chib kelganlardan yuqori bo‘lib, ayniqsa 2015–2017- va 2021–2023- yillarda migratsiya saldosi sezilarli darajada manfiy bo‘lgan. Bu holat asosan mehnat migratsiyasi, iqtisodiy imkoniyatlarning boshqa hududlarda ko‘proq jamlanganligi bilan izohlanadi.Keyingi yillarda migratsiya saldosi musbat shaklda shakllanmoqda.Bundan shahar yanada rivojlanayotganligi va aholini bandligi ta’minlanayotganligini ko ‘rish mumkin.

Xulosa. Umuman olganda, tadqiqot davrida hudud aholisining tabiiy o‘sishi yuqori va keyingi yillarda migratsiya saldosi yaxshilanayotganligi ko‘rinadi.Chunki shahar tarixiy,madaniy va tadbirkorlik markaziga aylanmoqda hamda ko‘plab investitsiya loyihalari shaharga kirmoqda.Tug‘lish darajasini pasayishi esa,yurtimizda olib borilayotgan keyingi yillardagi islohatlar sababi bo‘lishi mumkin.

Shaharda vodiydagi katta bozorlar va savdo markazlari mavjudligi shahar demografiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.Qo‘qon qadimdan savdo shahri sifatida shakllangan bo‘lib,bugungi kunda ham Farg‘ona vodiysining muhim iqtisodiy markazlaridan biri hisoblanadi.Chunki bozor va savdo komplekslari ishsiz aholi uchun ish o‘rinlari yaratadi.Masalan,yangi “Charxiy” savdo markazida 400dan ortiq doimiy ish o‘rni yaratildi.Natijada,qishloqlardan shaharga keluvchilar salmog‘i oshdi,ichki migratsiya kuchaydi,yosh mehnat resurslar shahrda to‘plandi.Bundan tashqari atrofdagi tumanlar aholisini o‘ziga jalb qilmoqda (Bog‘dod, Rishton, Oltiariq, Furqat, Yozyovon va boshqalar)

va bu transport oqimini kuchayishiga,xizmatlarga bo‘lgan talabni oshishiga olib keladi. Hamda aholi bandligini ta’minlash uchun ham yordam bermoqda.

Qo‘qon shahrida tabiiy ko‘payish ham yuqori va uni yillar mobaynida o‘sib borayotganini ko‘rdik. Bunga shahrdagi yoshlar ulushining kattagi,yosh oilalar ko‘pligi,sog‘liqni saqlash tizimi takomillashganligi, ona va bolalarga,qariyalarga mamlakat tomonidan e’tiborni kuchayganligini ko‘rsatadi. Qo‘qon shahrining savdo markazi sifatidagi mavqei,aholi zichligi,iqtisodiy faolligi uning tabiiy ko‘payishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.Shu sababli,Qo‘qon Farg‘ona vodiysidagi demografik jihatdan tez rivojlanayotgan shaharlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. Demografiya: [O‘quv qo‘llanma]. – Toshkent: Noshir, 2011. – 296 b.
2. Gadoyev K., Berdiyeva S. O‘zbek geografiya fani fidoyilari. – Toshkent, 2015.
3. Bo‘riyeva M. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – Toshkent: Universitet, 1997. – 157 b.
4. Qayumov, A.A., Yakubov O‘.Sh., Abdullayev A.G. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 160 b.
5. Asanov R.G. Aholi geografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 248 b.
6. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan: “Mashrab”, 2024. – 408 b.
7. Тожиева З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари // г.ф.д. (DSc) илмий дар. олиш у-н ёз. дисс. автореферати. – Тошкент, 2017. –76 б.
8. Караханов М.К. Подготовка и использование квалифицированных кадров рабочих и специалистов в Узбекистане в послевоенный период: автореферат дис. … канд. экон. наук. – Ташкент, 1958. – 17 с. URL:https://search.rsl.ru/ru/record/01006293471
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Farg‘ona viloyati hududiy statistika boshqarmasi. URL: https://farstat.uz
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. URL:https://stat.uz

FARG‘ONA VODIYSI YIRIK SHAHARLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH DARAJASINI BAHOLASH

Ne’matova Madinabonu Abdusattor qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
madinabonunematova17@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysining yirik shaharlari – Namangan, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon misolida mehnat resurslaridan foydalanish darajasining hududiy tarkibi iqtisodiy geografik nuqtai nazardan o‘rganilgan. Mehnat yoshidagi aholining ulushi, bandlik va ishsizlik darajasi foiz ko‘rsatkichlarni ballga o‘tkazish hamda integral indeks ishlab chiqilib, shaharlarning mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi bo‘yicha tahlil qilingan. Shuningdek, olingan natijalar shaharlarning mehnat bozori ko‘rsatkichlari va shahar qulayligi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot shaharlarda demografik o‘sish bilan mehnat bozori o‘rtasidagi muvofiqlik darajasini aniqlashga hamda shaharlarning umumiy qulaylik indeksini baholashda muhim ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: mehnat resurslari, bandlik, ishsizlik, indegral indeks, subindikator, qulaylik, baholash.*

Kirish. Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholi zichligi yuqori bo‘lgan hududlarda bu masala ahamiyatli, chunki bunday sharoitda mehnatga layoqatli aholining tabiiy o‘sishi ish o‘rinlariga bo‘lgan talabni doimiy ravishda oshirib boradi. Farg‘ona vodiysi – O‘zbekistonda aynan shunday hudud bo‘lib, uning tarkibiga kiruvchi Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlari mamlakatda aholi zichligi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bunday demografik yuklama sharoitida mehnat resurslaridan foydalanish